

Излаш



[Toshkent davlat agrar universiteti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida](#)

**1-ILOVA**  
Toshkent davlat agrar universiteti va uning filiallari faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha "YO'L XARITASI"

Toshkent davlat agrar universiteti, uning filiallari va Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institutida 2020/2021 o'quv yilidan boshlab tashkil etiladigan yangi bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari ro'yxati

Toshkent davlat agrar universiteti, uning filiallari va Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institutidagi ta'lim yo'nalishlari, mutaxassisliklariga birlashtirilayotgan ilmiy-tadqiqot muassasalari ro'yxati

**4-ILOVA**  
Qishloq xo'jaligi sohasida fan, ta'lim va ishlab chiqarishni integratsiyalash bo'yicha muvofiqlashtiruvchi kengash TARKIBI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 19.08.2019 yildagi PQ-4421-son

Кучга кириш санаси

19.08.2019

Қўшимча ахборот

Улашиш

Hujjat 12.02.2022 sanasi holatiga  
Amaldagi versiyaga o'tish

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING QARORI

### TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI FAOLIYATINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RSIDA

So'nggi yillarda qishloq xo'jaligi sohasida hududlarni rivojlantirish istiqbollari hisobga olgan holda yuqori malakali kadrlar tayyorlash, sohaga xalqaro ta'lim standartlari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish yuzasidan qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Amalga oshirilgan islohotlar o'quv-tarbiyaviy jarayon sifatini oshirish, uni innovatsion mazmun bilan to'ldirish, talabalarda mustaqil ravishda yangi bilimlarni egallash ko'nikmasini shakllantirishga imkon yaratdi.

Shu bilan birga, fan, ta'lim va ishlab chiqarishning uzviy integratsiyasi, kadrlar tayyorlashda agrar soha tarmoqlari bilan yaqin hamkorlikni kuchaytirish, ilmiy-tadqiqot natijalarini targ'ib va joriy qilish tizimini tubdan takomillashtirish talab etilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-apreldagi PF-5708-son "Qishloq xo'jaligi sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi **Farmonining** ijrosini ta'minlash, shuningdek, qishloq xo'jaligi sohasi va tarmoqlarida malakali kadrlar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash, fan, ta'lim va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta'minlash maqsadida:

1. Toshkent davlat agrar universiteti (keyingi o'rinlarda — Universitet) va uning filiallarida qishloq xo'jaligi ta'limi va ilm-fanini yanada rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari etib quyidagilar belgilansin:

qishloq xo'jaligida innovatsion resurstejamkor texnologiyalarni qo'llash, "aqlli qishloq xo'jaligi" (Smart agriculture) va raqamlashtirilgan agrotexnologiyalarni joriy qilish bo'yicha zamonaviy bilimlarga ega bo'lgan kadrlar tayyorlash;

o'quv-laboratoriya bazasini modernizatsiyalash, fan dasturlarida soha bo'yicha zamonaviy ishlab chiqarish jarayonlari, yuqori unumli va resurstejamkor ilg'or texnologiyalar sohasidagi bilimlarni shakllantirishga qaratilgan vazifalarni aks ettirish;

xorijiy ilmiy-tadqiqot va oliy ta'lim muassasalarida professor-o'qituvchilar, ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarning malakasini oshirish va stajirovkalarini tashkil etish;

ilmiy-tadqiqot institutlari, manfaatdor vazirlik, idora va tashkilotlar hamkorligida fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlar olib borish hamda ularning natijalarini ishlab chiqarishga keng joriy etish;

Universitet va uning filiallari axborot-maslahat markazlari (extension center) orqali qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishdagi tizimli muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo'yicha "axborot — maslahat markazi — kafedra — qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchisi" tizimini joriy etish;

professor-o'qituvchilar, ilmiy-tadqiqotchilar va talabalarning innovatsion texnologiyalarni yaratish hamda joriy etish borasidagi tashabbuskorligi va moddiy manfaatdorligini oshirish;

o'quv mashg'ulotlari, malakaviy amaliyotlarni o'tishda talabalarni innovatsion va yangicha fikrlashga yo'naltiradigan yangi o'qitish texnologiyalari hamda interfaol uslublarni, shu jumladan talabalarning mustaqil izlanishini ta'minlovchi mexanizmlarni keng joriy etish;

qishloq xo'jaligi va uning tarmoqlari uchun kadrlar tayyorlashning uzviy tizimini yaratish, birlashtirilgan akademik litsey va kasb-hunar kollejlari ta'lim dasturlarining uzluksizligi va izchilligini ta'minlash.

2. Quyidagilar:

Toshkent davlat agrar universiteti va uning filiallari faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha "yo'l xaritasi" **1-ilovaga** muvofiq;

*Oldingi tahrirga qarang.*

Toshkent davlat agrar universiteti, uning filiallari va Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institutida 2020/2021 o'quv yilidan boshlab tashkil etiladigan yangi bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari ro'yxati **2-ilovaga** muvofiq;

Toshkent davlat agrar universiteti, uning filiallari va Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institutidagi ta'lim yo'nalishlari, mutaxassisliklariga birlashtirilayotgan ilmiy-

tadqiqot muassasalari ro'yxati **3-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

*(2-bandning uchinchi va to'rtinchi xatboshilari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-apreldagi PF-6217-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2021-y., 06/21/6217/0409-son)*

3. Qishloq xo'jaligi sohasida fan, ta'lim va ishlab chiqarishni integratsiyalash bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi kengash tarkibi **4-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin hamda uning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilansin:

ma'muriy bo'ysunishidan qat'iy nazar qishloq xo'jaligi sohasi hamda uning tarmoqlari bo'yicha izlanishlar olib borayotgan, kadrlar tayyorlovchi ilmiy-tadqiqot va oliy ta'lim muassasalarining o'zaro hamkorligini ta'minlash;

qishloq xo'jaligi sohasi mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish;

qishloq xo'jaligi sohasidagi talab va ilg'or xorijiy tajribalar asosida oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida Davlat ta'lim standartlari, o'quv reja va dasturlarini tizimli ravishda takomillashtirilishini ta'minlash.

Belgilansinki, Universitet qishloq xo'jaligi sohasida yuqori malakali ilmiy-pedagog kadrlar va mutaxassislarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo'yicha tayanch oliy ta'lim muassasasi hamda Qishloq xo'jaligi sohasida fan, ta'lim va ishlab chiqarishni integratsiyalash bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi kengashning ishchi organi hisoblanadi.

4. O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi va Innovatsion rivojlanish vazirligining 2019/2020 o'quv yilidan boshlab:

tajriba-sinov tariqasida Universitetning 5411500 — O'simliklar va qishloq xo'jalik mahsulotlari karantini bakalavriat ta'lim yo'nalishida ta'limning kredit tizimini bosqichma-bosqich joriy etish;

Universitetning 2-bosqich talabalari orasidan saralab olingan iqtidorli talabalar uchun ta'limning alohida dasturlari asosida o'qitiladigan maxsus guruhlar tashkil etish. Bunda davlat ta'lim standartlari, malaka talablari, o'quv rejalari va fan dasturlari xorijiy mutaxassislarni jalb qilgan holda ishlab chiqiladi;

qishloq xo'jaligida agrotexnik tadbirlarning mavsumiyligini inobatga olib, dissertatsiyalarda ikki yillik ilmiy-amaliy dala tajribasi natijalarining qamrab olinishini ta'minlash maqsadida qishloq xo'jaligi sohasidagi magistratura mutaxassisliklari o'quv jarayonini yanvar oyidan boshlash to'g'risidagi takliflari ma'qullansin.

Bunda ta'limning kredit tizimida talabalar uchun haftada besh kunlik o'qish hamda haftaning shanba kuni mustaqil o'zlashtirish kuni deb belgilansin.

5. Belgilab qo'yilsinki:

O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi tomonidan uning asoslangan takliflari asosida qishloq xo'jaligi sohasidagi bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining ishlab chiqilgan Davlat ta'lim standartlari, malaka talablari, o'quv rejalari va fan dasturlarini tasdiqlash hamda o'quv jarayoniga bosqichma-bosqich joriy etish Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi;

Universitet va uning filiallari professor-o'qituvchilari o'quv, ilmiy-tadqiqot, ma'naviy-ma'rifiy, tashkiliy-metodik ishlardan tashqari vazirlik hamda idoralarning boshqa ishlariga jalb etilmaydi, shartnoma doirasida ko'rsatiladigan xizmatlar bundan mustasno.

6. O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi:

a) Toshkent davlat agrar universiteti va Nukus, Andijon, Termiz filiallari tuzilmasini qayta ko'rib chiqib, tasdiqlanishini ta'minlasin;

b) Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi hamda Samarqand viloyati hokimligi bilan birgalikda ikki oy muddatda Toshkent davlat agrar universitetining Samarqand filialini tashkil etish bo'yicha Hukumat qarori loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritsin;

v) Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bilan birgalikda:

*Oldingi tahrirga qarang.*

Universitet qoshidagi Qibray akademik litseyi hamda Qishloq xo'jaligi vazirligi tizimiga o'tkazilayotgan qishloq xo'jaligi kasb-hunar kollejlari negizida oliy ta'lim tizimi bilan integratsiyalashgan texnikumlar tashkil etish bo'yicha Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritsin;

*(6-band "v" kichik bandining ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 21-iyuldagi PF-6031-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 22.07.2020-y., 06/20/6031/1088-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

2020-yil 1-avgustga qadar texnikumlarni tamomlagan bitiruvchilar uchun bakalavriatning 3 yillik maxsus ta'lim dasturlarini ishlab chiqsin va amaliyotga joriy etsin;

*(6-band "v" kichik bandining uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 21-iyuldagi PF-6031-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 22.07.2020-y., 06/20/6031/1088-son)*

g) manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda:

Toshkent davlat agrar universiteti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida

1-ILOVA  
Toshkent davlat agrar universiteti va uning filiallari faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha "YO'L XARITASI"

Toshkent davlat agrar universiteti, uning filiallari va Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institutida 2020/2021 o'quv yilidan boshlab tashkil etiladigan yangi bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari ro'yxati

Toshkent davlat agrar universiteti, uning filiallari va Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institutidagi ta'lim yo'nalishlari, mutaxassisliklariga birlashtirilayotgan ilmiy-tadqiqot muassasalari ro'yxati

4-ILOVA  
Qishloq xo'jaligi sohasida fan, ta'lim va ishlab chiqarishni integratsiyalash bo'yicha muvofiqlashtiruvchi kengash TARKIBI

Universitet va uning filiallari talabalarining malakaviy amaliyotlarini yetakchi korxonalar, tashkilot va qishloq xo'jaligi klasterlarida sifatli o'tkazilishini ta'minlasin va monitoringini olib borsin;

ikki oy muddatda agrosanoat majmui tarkibidagi korxonalar, tashkilot va muassasalarni rahbar kadrlar bilan ta'minlash maqsadida Universitetda "Agrobiznes va boshqaruv" yo'nalishida zaxira kadrlar tayyorlashni yo'lga qo'yish bo'yicha Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritilsin;

bir oy muddatda Universitet va uning filiallarida kirish uchun belgilangan qabul chegarasidan kam ball to'plagan abituriyentlar uchun oshirilgan to'lov-kontrakt miqdorini ikki baravarga kamaytirish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish bo'yicha Davlat komissiyasiga taklif kiritilsin.

*Oldingi tahrirga qarang.*

7. Belgilab qo'yilsinki, texnikumda:

*(7-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 21-iyuldagi PF-6031-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 22.07.2020-y., 06/20/6031/1088-son)*

o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi darajasida kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllarida kadrlar tayyorlanadi va oliy ta'limning bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bilan integratsiyalashgan kichik bakalavrlar (Associate degree) tayyorlash bo'yicha ta'lim dasturlari amaliyotga joriy etiladi;

kichik bakalavr (Associate degree) ta'lim dasturlarini tamomlagan bitiruvchilar 2023/2024 o'quv yilidan boshlab mos bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha kirish sinovlarisiz suhbat o'tkazish orqali bakalavrlar tayyorlashning maxsus uch yillik dasturi bo'yicha va o'qish tugaganidan so'ng taqsimotga muvofiq uch yil davomida uzluksiz ishlab berish majburiyatini olgan holda Universitet va uning filiallariga o'qishga kirish huquqiga ega bo'ladi;

faoliyatni moliyalashtirishning asosiy manbalari etib O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti, vazirlik, idoralar, yirik ish beruvchilar hamda buyurtmachilarning budjetdan tashqari mablag'lari, xalqaro moliya institutlarining mablag'lari va o'quvchilarni to'lov-kontrakt asosida o'qitishdan tushadigan mablag'lar hisoblanadi;

yakuniy davlat attestatsiyasidan muvaffaqiyatli o'tgan bitiruvchilarga davlat namunasidagi diplom va tegishli kasblar bo'yicha belgilangan tartibda razryadlar beriladi;

o'quvchilarni qabul qilish parametrlari O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi tomonidan Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bilan kelishilgan holda tasdiqlanadi.

8. O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida, tashabbuskorlar mablag'lari hisobiga Universitet va uning filiallarida "Kichik innovatsion korxonalar"larni tajriba-sinov tariqasida tashkil etish to'g'risidagi taklifiga rozilik berilsin.

9. Universitet:

xorijiy davlatlarning yetakchi oliy ta'lim muassasalarida sinovdan o'tgan tajribalarni o'rgangan holda 2019/2020 o'quv yilidan boshlab universitetda rahbar kadrlar hamda professor-o'qituvchilar faoliyati samaradorligining baholash tizimini joriy etsin;

uch oy muddatda Universitetni 2025-yilga qadar dunyoning nufuzli 1000 ta oliy ta'lim muassasalari ro'yxati (QS reyting tizimi)ga kiritish bo'yicha "yo'l xaritasi"ni ishlab chiqib, tasdiqlash uchun Qishloq xo'jaligi vazirligiga taqdim etsin;

bir oy muddatda Universitet va uning filiallari ustavlarini tasdiqlanishini va belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilishini ta'minlasin;

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bilan birgalikda uch oy muddatda universitetning 5411500 — O'simliklar va qishloq xo'jalik mahsulotlari karantini ta'lim yo'nalishida ta'limning kredit tizimini joriy qilish to'g'risidagi nizomni ishlab chiqsin va belgilangan tartibda tasdiqlanishini ta'minlasin;

O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi, Moliya vazirligi, Innovatsion rivojlanish vazirligi va Adliya vazirligi bilan birgalikda ikki oy muddatda tajriba-sinov tariqasida Agrobiologiya fakultetini Toshkent davlat agrar universiteti tarkibida mustaqil faoliyat yuritadigan yuridik shaxs sifatida tashkil etish bo'yicha Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritilsin;

Universitet va uning filiallari huzurida tashkil etiladigan "Kichik innovatsion korxonalar"lar o'rtasida tuziladigan shartnomaning namunaviy shaklini ishlab chiqsin.

10. O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining agrar va oziq-ovqat sohasini rivojlantirish masalalari bo'yicha maslahatchisi A.D. Vaxabov zimmasiga — qarordagi vazifalarning ijrosi va monitoringi olib borilishini ta'minlashga, ma'muriy bo'ysunishidan qat'iy nazar ilmiy-tadqiqot va oliy ta'lim muassasalarining o'zaro hamkorligini ta'minlash;

O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi vaziri J.A. Xodjayev, Universitet rektori B.A. Sulaymonov zimmasiga — qaror ijrosini bevosita ta'minlash, universitetga zamonaviy ta'limning kredit tizimini tatbiq etish, ilmiy izlanishlar natijalarini tijoratlashtirish, fan-ta'lim va ishlab chiqarishni uzviy integratsiyalash, davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida tajriba-sinov tariqasida "Kichik innovatsion korxonalar"larni tashkil etish;

*Oldingi tahrirga qarang.*

Toshkent davlat agrar universiteti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida

1-ILOVA Toshkent davlat agrar universiteti va uning filiallari faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha "YO'L XARITASI"

Toshkent davlat agrar universiteti, uning filiallari va Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institutida 2020/2021 o'quv yilidan boshlab tashkil etiladigan yangi bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari ro'yxati

Toshkent davlat agrar universiteti, uning filiallari va Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institutidagi ta'lim yo'nalishlari, mutaxassisliklariga birlashtirilayotgan ilmiy-tadqiqot muassasalari ro'yxati

4-ILOVA Qishloq xo'jaligi sohasida fan, ta'lim va ishlab chiqarishni integratsiyalash bo'yicha muvofiqlashtiruvchi kengash TARKIBI

O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi vaziri J.A. Xodjayev, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vaziri I.U. Madjidov zimmasiga — ta'limning kredit tizimidagi va Universitetning 2-bosqich talabalari orasidan saralab olingan iqtidorli talabalar uchun ta'limning alohida dasturlarini ishlab chiqish hamda Universitet qoshidagi Qibray akademik litseyi hamda Qishloq xo'jaligi vazirligi tizimiga o'tkazilayotgan qishloq xo'jaligi kasb-hunar kollejlari negizida texnikumlar tashkil etish chora-tadbirlarini ko'rish bo'yicha javobgarlik yuklansin.

*(10-bandning uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 21-iyuldagi PF-6031-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 22.07.2020-y., 06/20/6031/1088-son)*

11. O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi Adliya vazirligi, boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda qonun hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin.

12. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripov va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari Z.Sh. Nizomiddinov zimmasiga yuklansin.

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent sh.,  
2019-yil 19-avgust,  
PQ-4421-son

O'zbekiston Respublikasi  
Prezidentining 2019-yil 19-  
avgustdagi PQ-4421-son qaroriga  
1-ILOVA

### **Toshkent davlat agrar universiteti va uning filiallari faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha**

“YO'L XARITASI”

T/r	Tadbirlar nomi	Amalga oshirish shakli	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
<b>I. Toshkent davlat agrar universiteti faoliyatini yanada takomillashtirish, ta'lim sifatini oshirish va moddiy-texnika bazasini mustahkamlash</b>				
1.	Toshkent davlat agrar universiteti (keyingi o'rinlarda Universitet deb ataladi) va uning Nukus, Andijon, Termiz filiallari tuzilmasini va ustavlarini yangidan tasdiqlash.	Tashkiliy chora-tadbirlar	2019-yil sentyabr	Universitet va uning filiallari, Qishloq xo'jaligi vazirligi
2.	Universitetni respublikamiz qishloq xo'jaligi sohasi bo'yicha yetakchi oliy ta'lim muassasasiga aylantirish va kelgusida rivojlantirish.  Bunda, quyidagilarni hisobga olgan holda Universitetning 2024 — 2030-yillarga mo'ljallangan Innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlashni nazarda tutuvchi Hukumat qarori loyihasini ishlab chiqish hamda Vazirlar Mahkamasiga kiritish:  qishloq xo'jaligi sohasi uchun yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlash;  qishloq xo'jaligida innovatsion resurs tejamkor texnologiyalarni qo'llash, “aqlli qishloq xo'jaligi” (Smart agriculture) va raqamlashtirilgan agrotexnologiyalarni joriy qilish;  republikamiz turroq-iqlim sharoitiga mos qishloq xo'jaligi ekinlarining seleksiyasi va urug'chiligi bo'yicha markazni tashkil etish;  startup-loyihalarni amalga oshirish orqali qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini rivojlantirish;  ilg'or va ilmiy hajmdor texnologiyalarni joriy etish uchun texnoparklar va ilmiy ishlab chiqarish klasterlarini tashkil etish;  ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik i texnologik ishlar natijalarni keng joriy etish uchun amaldagi ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasi mexanizmini takomillashtirish.	Vazirlar Mahkamasiga qarori loyihasi	2020-yil aprel	Qishloq xo'jaligi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Innovatsion rivojlanish vazirligi, manfaatdor vazirlik va idoralar, Universitet va uning filiallari
3.	Buyurtmachilar talabi va xorijiy tajriba asosida mavjud hamda yangi bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining malaka talablari, o'quv rejalarini ishlab chiqish va o'quv jarayoniga tatbiq etish.	Kompleks chora-tadbirlar	2019-yil sentyabr	Qishloq xo'jaligi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Universitet va uning filiallari

Toshkent davlat agrar universiteti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida

1-ILOVA  
Toshkent davlat agrar universiteti va uning filiallari faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha “YO'L XARITASI”

Toshkent davlat agrar universiteti, uning filiallari va Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institutida 2020/2021 o'quv yilidan boshlab tashkil etiladigan yangi bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari ro'yxati

Toshkent davlat agrar universiteti, uning filiallari va Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institutidagi ta'lim yo'nalishlari, mutaxassisliklariga biriktirilayotgan ilmiy-tadqiqot muassasalari ro'yxati

4-ILOVA  
Qishloq xo'jaligi sohasida fan, ta'lim va ishlab chiqarishni integratsiyalash bo'yicha muvofiqlashtiruvchi kengash TARKIBI

T/r	Tadbirlar nomi	Amalga oshirish shakli	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
4.	Universitet va uning filiallari axborot-maslahat markazlari (extension center) orqali qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishidagi tizimli muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo'yicha "axborot-maslahat markazi — kafedra — qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchisi" tizimini joriy etish.	Tashkiliy chora-tadbirlar	2019-yil sentyabr	Qishloq xo'jaligi vazirligi, Universitet va uning filiallari
5.	<p>Ta'lim jarayoni uchun o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish va joriy etish hamda axborot-resurs markazlari fondlarini muntazam yangilab borish. Buning uchun o'quv, ilmiy, uslubiy adabiyotlarni tayyorlash, tahrir qilish va nashrdan chiqarish bo'yicha tartibni ishlab chiqish.</p> <p>Bunda, quyidagilarni nazarda tutish:</p> <p>o'quv, ilmiy, uslubiy adabiyotlar mualliflarini munosib moddiy rag'batlantirish va ular uchun tegishli shart-sharoitlar yaratish;</p> <p>darslik va o'quv qo'llanmalar, ilmiy, uslubiy adabiyotlarni nashr qilish uchun Universitet va uning filiallari xarajatlari smetasiga muntazam mablag' ajratish.</p>	Tashkiliy chora-tadbirlar	2019-yil noyabr	Qishloq xo'jaligi vazirligi, Universitet va uning filiallari
6.	<p>Professor-o'qituvchilar, yosh tadqiqotchilar, talabalar uchun ilg'or badiiy, ilmiy va o'quv adabiyotlar elektron kataloglaridan hamda jahon ta'lim resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish.</p> <p>Bunda:</p> <p>xalqaro (RF, Koreya Respublikasi, Yaponiya, Germaniya, Xitoy va ushbu sohada yetakchi boshqa mamlakatlar) ilg'or tajribalarni o'rganish asosida Universitetning Axborot-resurs markazi foydalanuvchilari uchun kompleks elektron xizmatlar ko'rsatuvchi zamonaviy avtomatlashtirilgan axborot tizimini yaratish;</p> <p>veb va bulutli texnologiyalar asosida kutubxonaning raqamli resurslarini elektron katalogini yaratish;</p> <p>RFID texnologiyasi asosidakutubxona fondini ro'yxatga olish, hisobga qo'yish, tarqatish va himoyalash tizimini yaratish;</p> <p>kitoblarni hisobga qo'yish, tarqatish va qaytarish uchun avtomatlashtirilganelektron kiosklarni joriy etish;</p> <p>kitoblarni tezkor raqamlashtirish texnologiyasini joriy etish;</p> <p>xorijiy kutubxona resurslaridan erkin foydalanishsharoitlarini yaratish, jumladan respublika oliy ta'lim muassasalari uchun;</p> <p>elektron va qog'oz shaklidagi xalqaro ilmiy va o'quv nashrlariga obuna bo'lishnitashkil qilish.</p>	Kompleks chora-tadbirlar	2020-yil avgust	Qishloq xo'jaligi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Tashqi ishlar vazirligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Universitet va uning filiallari
7.	Ta'lim sifatini va ilmiy tadqiqotlar natijadorligini oshirish maqsadida oliy ta'lim muassasalari va uning filiallarini zamonaviyo'quv-laboratoriya jihozlari bilan ta'minlash.	Tashkiliy chora-tadbirlar	Reja-grafik asosida	Qishloq xo'jaligi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Moliya vazirligi, manfaatdor vazirlik va idoralar, Universitet va uning filiallari

Toshkent davlat agrar universiteti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida

1-ILOVA Toshkent davlat agrar universiteti va uning filiallari faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha "YO'L XARITASI"

Toshkent davlat agrar universiteti, uning filiallari va Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institutida 2020/2021 o'quv yilidan boshlab tashkil etiladigan yangi bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari ro'yxati

Toshkent davlat agrar universiteti, uning filiallari va Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institutidagi ta'lim yo'nalishlari, mutaxassisliklariga biriktirilayotgan ilmiy-tadqiqot muassasalari ro'yxati

4-ILOVA Qishloq xo'jaligi sohasida fan, ta'lim va ishlab chiqarishni integratsiyalash bo'yicha muvofiqlashtiruvchi kengash TARKIBI

T/r	Tadbirlar nomi	Amalga oshirish shakli	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
8.	Qishloq xo'jaligi sohasida amalga oshirilayotgan xalqaro loyihalar hisobidan olib kelinadigan qishloq xo'jalik texnikalari, o'quv-laboratoriya jihozlari, avtotransport vositalarini bojxona to'lovlaridan (bojxona yig'imlaridan tashqari) ozod qilish choralari ko'rish.	Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasi	2020-yil yanvar	Qishloq xo'jaligi vazirligi, Davlat bojxona qo'mitasi, Moliya vazirligi, Toshkent davlat agrar universiteti va uning filiallari
9.	Universitet va uning filiallarida tahsil olayotgan talaba magistrnlarni kelishuv asosida Germaniya, Koreya Respublikasi, Xitoy, Rossiya kabi rivojlangan davlatlarning oliy ta'lim muassasalari va xalqaro moliya tashkilotlari orqali ishlab chiqarish amaliyotlariga hamda stajirovkalarga yuborish.	Kompleks chora-tadbirlar	2020-yil fevral	Qishloq xo'jaligi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Tashqi ishlar vazirligi, Universitet va uning filiallari
10.	Ta'lim sifatini va ilmiy tadqiqotlar natijadorligini oshirish maqsadida universitet va uning filiallarini o'quv-laboratoriya jihozlari bilan ta'minlash. Bunda, Universitetning 7 ta o'quv laboratoriyasini, Andijon filialining 9 ta, Nukus filialining 11 ta, Termiz filialining 10 ta o'quv laboratoriyalarini jihozlar bilan ta'minlash.	Tashkiliy chora-tadbirlar	Reja-grafik asosida	Qishloq xo'jaligi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Moliya vazirligi, manfaatdor vazirlik va idoralar, Universitet va uning filiallari
11.	Xorijdagi reytingi yuqori bo'lgan eng yaxshi oliy ta'lim muassasalarining malakali professor-o'qituvchilari va mutaxassislarini o'quv jarayoni va malaka oshirish kurslariga jalb etish.	Kompleks chora-tadbirlar	2020-yil fevral	Qishloq xo'jaligi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Universitet va uning filiallari
12.	Xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik aloqalari o'rnatish hamda ilmiy-pedagogik faoliyat bo'yicha hamkorlik shartnomalari tuzish.	Tashkiliy chora-tadbirlar	Reja-grafik asosida	Qishloq xo'jaligi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Universitet
13.	Xorijiy oliy ta'lim muassasalaridan o'quv jarayoni va malaka oshirish kurslariga jalb etiladigan pedagog-xodimlar va mutaxassislar ro'yxatini aniqlash hamda ularni belgilangan muddatlarda o'quv jarayoni va malaka oshirish kurslariga jalb etish, ular ishtirokida onlayn video-seminarlar, vebinarlar o'tkazish.	Tashkiliy chora-tadbirlar	Reja-grafik asosida	Qishloq xo'jaligi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Universitet va uning filiallari
14.	Masofaviy o'qitish shaklini joriy etish orqali tinglovchilar va pedagog kadrlarning mustaqil ta'lim olishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish.  Universitet tomonidan xalqaro standartlarga asoslangan Yagona integrallashgan masofaviy o'qitish apparat-dasturiy kompleksini ishlab chiqish. Bunda:  masofaviy ta'lim xizmatlari portali (veb ilova);  onlayn o'quv smart auditoriyalari;  nazariy va amaliy mashg'ulotlarni masofaviy o'tkazish uchun virtual kabinet;  Universitetning yetakchi professor-o'qituvchilari ma'ruzalarining audiovizual ta'lim kontentini hamda multimedia ta'lim mahsulotlarini (audiokitoblar, 3D, VR va boshqalar) ishlab chiqaruvchi maxsus studiyalar va mutaxassislar shtati belgilangan media markaz;  2021-yildan boshlab Universitet professor-o'qituvchilari tomonidan o'tkaziladigan mashg'ulotlarni (ma'ruza, laboratoriya mashg'ulotlari, seminarlar va boshqalar) markazlashgan katalogini serverlarda shakllantirish va umumiy foydalanish uchun onlayn translatsiya qilishga mo'ljallangan elektron platforma ishlab chiqish nazarda tutiladi.	Kompleks chora-tadbirlar	2020-yil sentyabr	Qishloq xo'jaligi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Universitet va uning filiallari

Toshkent davlat agrar universiteti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida

1-ILOVA Toshkent davlat agrar universiteti va uning filiallari faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha "YO'L XARITASI"

Toshkent davlat agrar universiteti, uning filiallari va Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institutida 2020/2021 o'quv yilidan boshlab tashkil etiladigan yangi bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari ro'yxati

Toshkent davlat agrar universiteti, uning filiallari va Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institutidagi ta'lim yo'nalishlari, mutaxassisliklariga birlashtirilayotgan ilmiy-tadqiqot muassasalari ro'yxati

4-ILOVA Qishloq xo'jaligi sohasida fan, ta'lim va ishlab chiqarishni integratsiyalash bo'yicha muvofiqlashtiruvchi kengash TARKIBI

T/r	Tadbirlar nomi	Amalga oshirish shakli	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
15.	Xorijiy yetakchi oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan hamkorlikda ilmiy adabiyotlar yaratish, xalqaro grant loyihalarida ishtirok etish.	Kompleks chora-tadbirlar	doimiy	Qishloq xo'jaligi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Innovatsion rivojlanish vazirligi, Universitet
16.	Universitet va uning filiallari ilmiy salohiyatini oshirish maqsadida tayanch doktoranturaga ixtisosliklar bo'yicha qabul kvotasini oshirish hamda filiallar uchun maqsadli qabulni tashkil etish yuzasidan Innovatsion rivojlanish vazirligiga asoslangan takliflarni taqdim etish. Universitet va uning filiallarida ilmiy-pedagog kadrlar tomonidan PhD va DcS dissertatsiyalarini himoya qilish rejasini ishlab chiqish hamda 2025-yilga qadar ilmiy salohiyatini 55 — 60 foizga yetkazish.	Kompleks chora-tadbirlar	2019-yil noyabr	Innovatsion rivojlanish vazirligi, Qishloq xo'jaligi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Universitet va uning filiallari
17.	Xalqaro aloqalar o'rnatilgan xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda tor ixtisosliklar bo'yicha maqsadli doktorant va magistrlar tayyorlashni yo'lga qo'yish. Bunda 2019 — 2021-yillarda 18 nafar PhD, 45 nafar magistratura yo'nalishiga professor-o'qituvchilar va talabalarni o'qishga yuborish.	Tashkiliy chora-tadbirlar	Reja-grafik asosida	Qishloq xo'jaligi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Mutaxassislarni xorijda tayyorlash va vatandoshlar bilan muloqot qilish bo'yicha "El-yurt umidi" jamg'armasi, Universitet
18.	Universitet va uning filiallari faoliyati bilan bog'liq bo'lgan boshqaruv va statistik ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlash hamda monitoring qilishga mo'ljallangan axborot tizimini yaratish.	Tashkiliy chora-tadbirlar	2020-yil may	Qishloq xo'jaligi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Universitet va uning filiallari
19.	Universitet tomonidan kommunal to'lovlar (issiq suv, isitish tizimi, ichimlik suv)ni iqtisod qilish, energiya resurslaridan samarali foydalanish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash maqsadida Universitet hududida zamonaviy 7 ta qozonxona hamda 4 ta yer ostidan suv chiqarish inshootlarini qurish.	Tashkiliy chora-tadbirlar	2020-yil fevral — noyabr	Qishloq xo'jaligi vazirligi, Qurilish vazirligi, Moliya vazirligi, Universitet
<b>II. Toshkent davlat agrar universitetining Nukus, Andijon, Termiz filiallari faoliyatini yanada takomillashtirish, ta'lim sifatini oshirish va moddiy-texnika bazasini mustahkamlash</b>				
20.	Universitetning filiallariga qarashli yer maydonlari va binolarda davlat-xususiy sheriklik asosida "Eco agro industrius nou hau" MChJ tomonidan zamonaviy nou-xau texnologiyalarni qo'llagan holda "Agroekoturizm" bazasini hamda anor, uzum, qulupnay va malina yetishtirish bo'yicha klasterlarni tashkil etish.	Tashkiliy chora-tadbirlar	2019-yil noyabr	Qishloq xo'jaligi vazirligi, "Eco agro industrius nou hau" MChJ, Toshkent viloyati hokimligi, Universitet va uning filiallari
21.	Universitetning Andijon filialida "Tuproq ostidan sug'orishni qishloq xo'jaligi ekinlariga qo'llashni ilmiy asoslash" loyahasini amalga oshirish.	Kompleks chora-tadbirlar	2020-yil mart	Qishloq xo'jaligi vazirligi, Universitetning Andijon filiali, Andijon viloyati hokimligi
22.	Universitetning Andijon filialida AQSh Xalqaro taraqqiyot agentligi (USAID)ning fondi bilan hamkorlikda qishloq xo'jaligida qiymat zanjiri loyihasi doirasida intensiv mevali bog' tashkil etish.	Tashkiliy chora-tadbirlar	2020-yil mart	Qishloq xo'jaligi vazirligi, Andijon viloyati hokimligi, Universitetning Andijon filiali
23.	Universitetning Andijon filialida Belorussiya yo'l-qurilish va qishloq xo'jaligi texnikalari ishlab chiqaruvchi "Blyuming" korxonasi bilan hamkorlikda xalqaro zamonaviy qishloq xo'jaligi texnikalari namoyishini tashkil qilish.	Tashkiliy chora-tadbirlar	2019-yil 15-sentabr	Qishloq xo'jaligi vazirligi, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, Andijon viloyati hokimligi, Universitet
24.	Universitetning Nukus filialida Yaponiyaning OYO korporatsiyasi bilan hamkorlikda "O'zbekistonda cho'lining oldini olish maqsadida ko'kalamzorlashtirish" loyahasini amalga oshirish.	Kompleks chora-tadbirlar	Reja-grafikasosida	Qishloq xo'jaligi vazirligi, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, Universitetning Nukus filiali

Toshkent davlat agrar universiteti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida

1-ILOVA Toshkent davlat agrar universiteti va uning filiallari faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha "YO'L XARITASI"

Toshkent davlat agrar universiteti, uning filiallari va Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institutida 2020/2021 o'quv yilidan boshlab tashkil etiladigan yangi bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari ro'yxati

Toshkent davlat agrar universiteti, uning filiallari va Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institutidagi ta'lim yo'nalishlari, mutaxassisliklariga birlashtirilayotgan ilmiy-tadqiqot muassasalari ro'yxati

4-ILOVA Qishloq xo'jaligi sohasida fan, ta'lim va ishlab chiqarishni integratsiyalash bo'yicha muvofiqlashtiruvchi kengash TARKIBI

T/r	Tadbirlar nomi	Amalga oshirish shakli	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
25.	Chorvachilik, baliqchilik mahsulotlari, meva-sabzavot, moyli ekinlar, dorivor o'simliklarni qayta ishlash, qadoqlash bo'yicha zamonaviy mini sexlarni tashkil etish.	Tashkiliy chora-tadbirlar	Reja grafik asosida	Qishloq xo'jaligi vazirligi, Universitet va uning filiallari

Izoh. "Yo'l xaritasi"da nazarda tutilgan tadbirlar zaruratga qarab o'zgartirilishi, boshqa bandlardagi hujjatlar bilan birlashtirilishi yoki bir necha turdagi hujjatlarga bo'linishi mumkin.

Ikki va undan ortiq tadbirlar birlashtirilgan holatlarda ushbu tadbirlar uchun belgilangan eng kechki muddat umumlashtirilgan tadbirning ijro muddati hisoblanadi. Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish jarayonida "yo'l xaritasi"da belgilangan tadbirlarning mazmuniga mos keladigan boshqa masalalar ham nazarda tutilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi  
Prezidentining 2019-yil 19-avgustdagi PQ-4421-son qaroriga  
2-ILOVA

*Oldingi tahrirga qarang.*

### **Toshkent davlat agrar universiteti, uning filiallari va Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institutida 2020/2021 o'quv yilidan boshlab tashkil etiladigan yangi bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari**

#### RO'YXATI

*(2-ilovaning nomi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-apreldagi PF-6217-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2021-y., 06/21/6217/0409-son)*

#### **I. Bakalavriat ta'lim yo'nalishlari**

1. Qishloq xo'jaligida raqamli texnologiyalar
2. Agroturizm
3. Qishloq xo'jaligida kooperativ boshqaruv
4. Gidrobiologiya
5. Ixtiologiya
6. Asalarichilik
7. Veterinariya meditsinasi (hayvonot turlari bo'yicha)
8. Zootexnologiya (qoramolchilik)
9. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
10. Tuproq bonitirovkasi va yer resurslaridan foydalanish
11. Agrosanoatda texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish va texnik servis
12. Agrobiznes va marketing

#### **II. Magistratura mutaxassisliklari**

1. Agrologistika
2. Agrobiznes va investitsion faoliyat
3. Agrosanoatda buxgalteriya hisobi va iqtisodiy tahlil
4. Qishloq xo'jaligida ekologik xavfsizlik
5. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini standartlashtirish va sertifikatlashtirish
6. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
7. Organik dehqonchilik va oziq-ovqat xavfsizligi
8. O'simliklar himoyasida monitoring va bashorat
9. Subtropik va sitrus meva ekinlari
10. Qishloq xo'jaligi biotexnologiyasi
11. Meva-sabzavot ekinlari seleksiyasi va urug'chiligi
12. Klasterlarni boshqarish

Izoh. O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bilan kelishgan holda yangi bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari ro'yxatiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi  
Prezidentining 2019-yil 19-

Toshkent davlat agrar universiteti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida

1-ILOVA  
Toshkent davlat agrar universiteti va uning filiallari faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha "YO'L XARITASI"

Toshkent davlat agrar universiteti, uning filiallari va Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institutida 2020/2021 o'quv yilidan boshlab tashkil etiladigan yangi bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari ro'yxati

Toshkent davlat agrar universiteti, uning filiallari va Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institutidagi ta'lim yo'nalishlari, mutaxassisliklariga biriktirilayotgan ilmiy-tadqiqot muassasalari ro'yxati

4-ILOVA  
Qishloq xo'jaligi sohasida fan, ta'lim va ishlab chiqarishni integratsiyalash bo'yicha muvofiqlashtiruvchi kengash TARKIBI



*Oldingi tahrirga qarang.***Toshkent davlat agrar universiteti, uning filiallari va Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institutidagi ta'lim yo'nalishlari, mutaxassisliklariga birlashtirilayotgan ilmiy-tadqiqot muassasalari**

## RO'YXATI

*(3-ilovaning nomi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-apreldagi PF-6217-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2021-y., 06/21/6217/0409-son)*Toshkent davlat agrar universiteti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida1-ILOVA  
Toshkent davlat agrar universiteti va uning filiallari faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha "YO'L XARITASI"Toshkent davlat agrar universiteti, uning filiallari va Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institutida 2020/2021 o'quv yilidan boshlab tashkil etiladigan yangi bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari ro'yxatiToshkent davlat agrar universiteti, uning filiallari va Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institutidagi ta'lim yo'nalishlari, mutaxassisliklariga birlashtirilayotgan ilmiy-tadqiqot muassasalari ro'yxati4-ILOVA  
Qishloq xo'jaligi sohasida fan, ta'lim va ishlab chiqarishni integratsiyalash bo'yicha muvofiqlashtiruvchi kengash TARKIBI

T/r	Ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari nomi	Birlashtirilgan ilmiy-tadqiqot muassasalari nomi
1.	5410200 — Agronomiya (dehqonchilik mahsulotlari turlari bo'yicha)	Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ITI
	5410400 — Qishloq xo'jaligi ekinlari seleksiyasi va urug'chiligi	
	5A410201 — Agronomiya	
	5A410401 — Seleksiya va urug'chilik (ekin guruhlari bo'yicha)	
2.	5410200 — Agronomiya (dehqonchilik mahsulotlari turlari bo'yicha)	O'simlikshunoslik ITI
	5A410202 — O'simlikshunoslik (ekin guruhlari bo'yicha)	
3.	5411600 — Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilik	Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ITI
	5411700 — Issiqxona xo'jaligini tashkil etish va yuritish	
	5A411001 — Sabzavotchilik va polizchilik	
	5A411004 — Kartoshkachilik	
4.	5410200 — Agronomiya (dehqonchilik mahsulotlari turlari bo'yicha)	Sholichilik ITI
	5A410202 — O'simlikshunoslik (ekin guruhlari bo'yicha)	
5.	5410300 — O'simliklarni himoya qilish (ekin turlari bo'yicha)	O'simliklarni himoya qilish ITI
	5411500 — O'simliklar va qishloq xo'jaligi mahsulotlari karantini	
	5A410301 — O'simliklar himoyasi (usullari bo'yicha)	
	5A410302 — Entomologiya	
	5A410303 — Fitopatologiya	
6.	5411000 — Mevachilik va uzumchilik	M. Mirzayev nomidagi bog'dorchilik, uzumchilik va vinochilik ITI
	5410500 — Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash texnologiyasi (mahsulot turlari bo'yicha)	
	5A411002 — Mevachilik	
	5A411003 — Uzumchilik va uzumni dastlabki qayta ishlash	
	5A410501 — Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash texnologiyasi (mahsulotlar turlari bo'yicha)	

T/r	Ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari nomi	Biriktirilgan ilmiy-tadqiqot muassasalari nomi
7.	5410100 — Agrokimyo va agrotuproqshunoslik	Tuproqshunoslik va agrokimyo ITI
	5A410101 — Agrotuproqshunoslik va agrofizika (sohalar bo'yicha)	
	5A410102 — Agrokimyo	
8.	5410900 — Ipakchilik va tutchilik	Ipakchilik ITI
	5A410901 — Ipakchilik	
	5A410902 — Tutchilik	
9.	5410600 — Zootexnologiya (baliqchilik)	Baliqchilik ITI
	5A410606 — Baliqchilik	
10.	5630300 — Qishloq xo'jaligida ekologik xavfsizlik	Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish ITI
11.	5410400 — Qishloq xo'jaligi ekinlari seleksiyasi va urug'chiligi	Genetika va eksperimental biologiya ITI
	5A410401 — Seleksiya va urug'chilik (ekin guruhlari bo'yicha)	
12.	5411900 — Agrobiotexnologiya	Genomika va bioinformatika ITI
	5A411005 — Meva-sabzavotchilikda biotexnologiya	
13.	5410800 — O'rmonchilik	O'rmonchilik ITI
	5411100 — Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi	
	5411200 — Manzarali bog'dorchilik	
	5A410801 — O'rmonchilik	
	5A411101 — Dorivor o'simliklarni yetishtirish texnologiyasi	
	5A411201 — Aholi yashash joylarini ko'klamzorlashtirish va landshaftli dizayn	
	5A411202 — Manzarali bog'dorchilik	
14.	5233100 — Agrosanoatda buxgalteriya hisobi	Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti ITI
	5233200 — Agrologistika	
	5233300 — Agrobiznes va investitsion faoliyat	
15.	5411800 — Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini standartlashtirish va sertifikatlashtirish	Standartlashtirish, sertifikatlashtirish va texnik jihatdan tartibga solish ITI

O'zbekiston Respublikasi  
Prezidentining 2019-yil 19-avgustdagi PQ-4421-son qaroriga  
4-ILOVA

### Qishloq xo'jaligi sohasida fan, ta'lim va ishlab chiqarishni integratsiyalash bo'yicha muvofiqlashtiruvchi kengash

#### TARKIBI

*Oldingi tahrirga qarang.*

- Sh.M. G'aniyev O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining agrar va oziq-ovqat sohalarini rivojlantirish masalalari bo'yicha o'rinbosari, Kengash raisi
- J.A. Xodjayev O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi vaziri, Kengash raisining o'rinbosari
- U.Sh. Begimkulov O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining o'rinbosari
- S.Z. Mirzayev O'zbekiston Fanlar akademiyasining vitse-prezidenti
- I.Y. Abduraxmonov O'zbekiston Respublikasi innovatsion rivojlanish vaziri
- B.Sh. Usmanov O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va sanoat vaziri o'rinbosari

**Toshkent davlat agrar universiteti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida**

**1-ILOVA**  
**Toshkent davlat agrar universiteti va uning filiallari faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha "YO'L XARITASI"**

**Toshkent davlat agrar universiteti, uning filiallari va Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institutida 2020/2021 o'quv yilidan boshlab tashkil etiladigan yangi bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari ro'yxati**

**Toshkent davlat agrar universiteti, uning filiallari va Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institutidagi ta'lim yo'nalishlari, mutaxassisliklariga birlashtirilayotgan ilmiy-tadqiqot muassasalari ro'yxati**

**4-ILOVA**  
**Qishloq xo'jaligi sohasida fan, ta'lim va ishlab chiqarishni integratsiyalash bo'yicha muvofiqlashtiruvchi kengash TARKIBI**

7. A.E. Ravshanov O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Agrar va oziq-ovqat sohasini rivojlantirish masalalari kotibiyati mudiri
8. A.X. Abdullayev O'zbekiston Respublikasi yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasi raisi
9. A.Sh. Xaitov O'zbekiston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi raisi
10. B.T. Norqobilov O'zbekiston Respublikasi veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi raisi
11. N.J. Bakirov O'zbekiston Respublikasi o'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi raisi
12. B.T. Qo'chqorov O'zbekiston Respublikasi ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi raisi
13. B.A. Sulaymonov Toshkent davlat agrar universiteti rektori
14. B.Q. Sharipov "O'zbekipaksanoat" uyushmasi raisi
15. O.M. Musayev "O'zbekbaliqsanoat" uyushmasi raisi
16. N.Z. Faxrutdinov Limon yetishtiruvchilar va eksport qiluvchilar uyushmasi raisi
17. E.A. Toshpo'latov Kartoshka yetishtiruvchilar uyushmasi raisi
18. O.S. Mustafayev Uzumchilik va vinochilikni rivojlantirish agentligi direktori
19. N.E. Najimov Bog'dorchilik va issiqxona xo'jaligini rivojlantirish agentligi direktori
20. Lavozim bo'yicha Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi bosh direktori o'rinbosari
21. A.I. Maksudov "O'zpxatasanoat" AJ boshqaruvi raisi
23. F.J. Pulatov "O'zdonmahsulot" AK boshqaruvi raisi
24. Y.M. Abdurazzoqov "O'zpparrandasanoat" uyushmasi raisi
25. Sh. Suyarqulov "O'zbekiston asalarichilari" uyushmasi raisi
27. Z.O. Fayziyev "O'zbekoziqovqatzaxira" uyushmasi raisi
28. Lavozimi bo'yicha O'simliklar karantini va himoyasi agentligi bosh direktori
29. K. Abdullayev Yong'oq ishlab chiqaruvchilar va eksport qiluvchilar uyushmasi raisi
30. R.O'. Mamatkulov "Agrobank" ATB boshqaruvi raisi
31. E.Sh. Torenliyazov Toshkent davlat agrar universiteti Nukus filiali direktori
32. Lavozim bo'yicha Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti rektori
33. Ch.R. Begimkulov Toshkent davlat agrar universiteti Termiz filiali direktori
34. D.U. Mamadiyarov Toshkent davlat agrar universiteti Buyurtmalar portfelini shakllantirish, bitiruvchilarni ishga taqsimlash va monitoring bo'limi boshlig'i, *Kengash kotibi*

Izoh. Kengash a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda uning tarkibiga ushbu lavozimlarga yangidan tayinlangan shaxslar yoxud zimmasiga tegishli funksiyalar yuklangan shaxslar kiritiladi.

(4-ilova O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-fevraldagi PF-67-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.02.2022-y., 06/22/67/0128-son)

(Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 19.08.2019-y., 07/19/4421/3590-son; 22.07.2020-y., 06/20/6031/1088-son; 01.05.2021-y., 06/21/6217/0409-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.02.2022-y., 06/22/67/0128-son)